

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA TAKROR SO'ZLAR VA ULARNING IFODASI

Yarasheva Shahrizoda Alisher qizi

Buxoro tuman 2-umumta'lim maktabi o'zbek tili o'qituvchisi

Takror so'zlarni A.Kononov, E.Sevortyan, N.Baskakov, N.Direnkova, A.Kaydarov va ba'zi bir qator o'zbek tilshunoslari so'z yasash usuli deb qaraydilar. S.Fuzailov, U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh. Rahmatullayev, N. Abdurahmonovlar kabi tilshunos olimlar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydilar¹ A. G'ulomov bir o'rinda: "bir ot takrorlanib, yangi ot tug'diradi" desa, boshqa bir o'rinda: "ot yoki undov takrorlanib, ravish yasaydi", deydi, yana bir o'rinda: "sintaktik usul bilan so'z yasash reduplikatsiya" deb yozadi. M.Odilov "O'zbek tilida... takroriy so'zning yasalishi so'z yasash hodisasi bo'la olmasligini" aytadi. A.Abdurahmonov takroriy so'zlar bilan juft sozlarning farqi haqida yozib: "Takror so'zlar faqat suhbat jarayonida suhbatdoshlarning irodasi asosida, improvizatsiya asosida hosil qilinadi va suhbatdan keyin yana yo'q bo'lib ketadi", - deydi²

Takror so'zlar aslida leksik hodisa sanaladi. Buni esa har qanday so'zni takror holda qo'llab bo'lmasligi bilan ham izohlash mumkin. Qolaversa, takror holda qo'llangan istalgan so'z takroriy shakl bo'lavermaydi. Tilshunoslikda mazkur hodisa uzoq davr mahsuli bo'lib, har ikkala qism bir butunlikda leksik-grammatik jihatdan birlashib yaxlit holga kelgan bo'ladi. "Takror so'z"ga bag'ishlangan maxsus ishlarda unga "morfologik hodisa" sifatida qaraladi³.

Takrorlar ikki xil: to'la (uzun-uzun kabi) va qisqa takror (qip- qizil) kabi bo'ladi. Umuman, nol ko'rsatkichli so'zlarning takrorlanib ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan grammatik va semantik hodisalar o'zbek tilshunosligida (turkologiyada ham) munozarali masalalaridan birdir. Bir tomondan dasta-dasta (gul), marjon-marjon (ter) kabi so'zlarning analitik shaklini hosil qiluvchi takror, ikkinchi tomondan, "oyi, oyi sizni chaqiryapman" kabi sof sintaktik-ritorik takror mavjud bo'lib, ular biror

¹ Fuzailov S. O'zbek tilida ravishlar. -T.:1953, 10-b.; Tursunov U, Muxtorov M, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1992, 82-b.

² Abdurahmonov N. O'zbek tilida juft so'zlar sostavi masalasi. Alisher Navoiy nomidagi SamDU asarlari. -Samarqand,1963, 50-b.

³ Хожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Т.: "Ўқитувчи", 1979. 21-б.



affikssiz qo'llanishiga ko'ra (tashqi jihatdan) bir-biridan farq qilmaydi. Solishtiramiz:

1. Quyosh , shamol, ko'kat, gilam-gilam gul, Zangori ufqlar, soz manzaragar (Oybek).
2. Abdusalom. Yetti tusda tovlanadigan gullardan dasta-dasta ko'tarib kelishibdi. (Gazetadan)

Ammo birinchi tipdagi *gilam-gilam*, *qop-qop*, *dasta-dasta* singari takrorlarni *bo'rivachcha*, *bo'rivachcha* tipidagi sintaktik-ritorik takrordan farqlash kerak. Shuning uchun ham A.Hojiyev *dod-dod*, *qator-qator* kabilarni takroriy so'z; *badbaxt*, *badbaxt*, *voydod*, *voydod* kabilarni so'zning oddiy takrori deydi va ularni bir-biridan ajratish lozimligini ta'kidlaydi.

Takror so'zlar leksik-grammatik tabiatiga ko'ra quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- 1) takror so'zning har ikkala qismi mustaqil ma'noli bo'ladi, ular asosan, umumlashtirish, jamlik, ma'no kuchaytirish va ta'kid uchun qo'llanadi;
- 2) takror so'zlarning qismlari juft so'zlar singari hech qanday bog'lovchi vositalarsiz birikkan bo'ladi;
- 3) ravish bilan bog'li holdagi takror so'zlar tarkiban murakkabligi bilan ajralib turadi.

A.Hojiyev takror so'zlar haqida yozar ekan, o'zbek imlosida ayrim so'zlarni asossiz ravishda takroriy so'zlar qatoriga kiritilganligi va defies bilan yozilishi noto'g'ri ekanligini haqli ravishda ta'kid etadi. "Hozirgi o'zbek tilida, - deb yozadi olim, - maxsus birikish formasiga ega bo'lgan ba'zi birikmalar ham juft yoki takroriy so'z deb tasavvur etilib, defis bilan yozilmoqda. Bu o'qish-o'qitish ishlariga qator qiyinchilik va chalkashliklarning yuz berishiga sabab bo'ladi⁴". Tadqiqotchi o'zbek imlosida chiziqcha bilan yozilib *kelinayotgan u yoqdan-bu yoqqa*, *qo'lni-qo'lga*, *biri-biridan*, *hosilga-hosil* (qo'shmoq), *kuchiga-kuch* (qo'sharmoq), *biri-biriga* (o'xshamoq) va h.k. birikuvlarni juft yoki takror bo'lmasligini va ularni chiziqchasiz yozish kerakligini aytadi, badiiy asarlardan bu kabi so'zlar qo'llangan misollar keltiradi.

⁴ O'sha manba: 24-b.



Xullas, takror ravish va takror olmosh ham uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishda qo'llanadi. Har ikkalasi turli ma'nolarga ega. Ularning nozik ma'no qirralari matnda ro'yobga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. 320 б.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982. 168 б.
3. Абдурахмонов Ғ. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989.160 б.
4. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиш тизими. – Тошкент. Ўқитувчи, 2007, 165 б.
5. Мирзаев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Машқлар тўплами. – Тошкент, 1963. 143 б
6. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро: 2005. 228 б.
7. Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 2001. 124 б.
8. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш. Монография. –Тошкент: Мухаррир, 2010, 132 б.

